NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

Jomasho`y shaharcha, Bo`ston ko`chasi, 30 uy

2022 - yil 11 - avgust 415-6-81-Q/22 Mingbuloq tumani hokimligi

Qabristonlarda go‘r qazish hamda marosim xizmatlari bo‘yicha go‘rkovlar va marosim xizmatlarini bajaruvchi xodimlar ta’minoti uchun aholi tomonidan ko‘rsatiladigan pulli xizmatlar tarifini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 9-martdagi 59-son qarori bilan tasdiqlangan “Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish qoidalari”ning 42-bandi, 2011-yil 4-apreldagi 101-son qarori bilan tasdiqlangan “Dafnetish joylarini saqlash, ulardan foydalanish va qabr ustiyodgorliklarini o‘rnatish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 8, 14-bandlariga asosan, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Mingbuloq tuman obodonlashtirish boshqarmasining 01.06.2022-yildagi taklifi hamda Mingbuloq tuman hokimligi moliya bo‘limining 01.06.2022-yildagi xulosasi ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Mingbuloq tumanida giqabristonlarda go‘rqazish bo‘yicha go‘rkovlar ta’minoti ko‘rsatiladigan pullik xizmatlar uchun aholi tomonidan to‘lanishi lozim bo‘lgan tariflar miqdori quyidagicha etib belgilansin:

16 yoshgacha bo‘lgan bir nafar bola uchun bazaviy hisoblash miqdorining 25 foizi;

16 yoshdan katta bo‘lgan bir nafar shaxs uchun bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi.

3. Mingbuloq tumanidagi qabristonlarda marosim xizmatlari (masalan, mayyitni ko‘tarib olib kelish, qabrga qo‘yish, ko‘mish va boshqalar) bo‘yicha marosim xizmatlarini bajaruvchi xodimlar ta’minoti uchun aholi tomonidan ko‘rsatiladigan pullik xizmatlar tarifi bazaviy hisoblash miqdorining 15 foizi (harbir marosim xizmati uchun alohidadan) etib belgilansin.

4. Barcha ishlab turgan qabristonlarda dafn etish uchun joy (uchastka) bepul ajratiladi.

5. Mingbuloq tuman obodonlashtirish boshqarmasi: Qabristonlarda go‘r qazish bo‘yicha go‘rkovlar ta’minoti hamda marosim xizmatlari bo‘yicha marosim xizmatlarini bajaruvchi xodimlar ta’minoti uchun aholi tomonidan ko‘rsatiladigan pullik xizmatlar tarifi miqdoriga qat’irioya etilishini;

Ushbu mablag’lar tegishli ravishda go‘rkovlar va marosim xizmatlarini bajaruvchi xodimlar ta’minoti uchun ishlatilishini;

Mazkur pullik xizmatlar tarifi miqdorini aholiga yetkazilishini va to‘g‘ri tushuntirilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror “Mingbuloq” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mingbuloq tuman hokimligining Axborot xizmati mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida rasman e’lon qilish va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirish choralarini ko‘rsin.

9. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Mingbuloq tuman hokimining 2019-yil 7- dekabrdagi 4800-sonli qarori o‘zkuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qarordan norozi shaxslar sudga yoki yuqorituruvchi organga shikoyat qilish huquqiga ega.

11. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **Н.Худойбердиев**